

Date: 7th May-2025

**KIYIM HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. TIKILADIGAN KIYIM UCHUN
GAZLAMA VA FASON TANLASH.**

Ismailova Momogul Hamraboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi”

Otaniyozova Sunbuloy Otajanovna

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta’lim 3-kurs talabasi

Eshchanova Saxiba Kadirberganovna

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta’lim 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiyimlarda el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti va siyosatida bo'layotgan o'zgarishlar bilan barobar kiyim shakllari ham o'zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, gozallik to'g'risidagi ideallari, xo'jalik yuritishning oziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

Kalit so'zlar: Kiyim, ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal); kundalik, uysa, dam olish paytida, bayram va to'ymarosimlarida kiyiladigan (kishilik) kiyimlar, ish kiyim (jomakor), sport kiyim, rasmiy kiyim (forma)lar, maxsus kiyimlarga bo'linadi; ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlari

Аннотация. В статье одежда отражает определенные элементы традиций, обычаяев, социальных отношений, образовательных, религиозных и эстетических форм, которые восходят к истории народа. Наряду с изменениями в общественной жизни, экономике и политике меняются и стили одежды, отражающие материальное положение людей, их вкусы, идеалы красоты, конкретные аспекты экономической деятельности и некоторые стороны семейной жизни.

Ключевые слова: Одежда, нижнее белье, верхняя одежда, головные уборы, обувь; Она подразделяется на (личную) одежду, которую носят каждый день, дома, во время отпуска, праздников и свадеб, рабочую одежду (повседневную одежду), спортивную одежду, официальную одежду (uniform) и специальную одежду; женская, мужская и детская одежда.

Annotation: This article reflects some elements of traditions, customs, social relations, educational, religious and aesthetic forms that go back to the history of the people in clothing. Along with changes in social life, economy and politics, clothing forms also change, reflecting the material condition of the people, people's tastes, ideals of beauty, specific aspects of economic activity and some aspects of family life.

Keywords: Clothing, underwear, outerwear, headwear, footwear; clothing for everyday wear, at home, during vacations, holidays and weddings (personal), workwear, sportswear, formal wear (uniforms), special clothing; women's, men's and children's clothing.

Date: 7th May-2025

Kiyim, kiyim-kechak deb badanni yopib turuvchi har qanday mato parchasiga aytiladi. Kiyimlar tikiladi, to‘qiladi, yoki boshqa usullar bilan tayyorlanadi. Kiyim kiyishdan maqsad avvalo tanani atrof-muhit ta’siri: issiqsovq, shamol, chang-to‘zon, quyosh nurlari, yog‘in va hokazodan asrashdir. Bundan tashqari kiyim ijtimoiy sabablarga ko‘ra ham kiyiladi.

Kiyim — inson tanasini tashqi muhit (iqlim, ob-havo o‘zgarishlari, quyosh nuri va b.) ta’siri va turli mexaniq ta’sirlardan asraydigan vositalar to‘plami; estetik vazifani bajaradi hamda jins, yosh, milliylik va b. xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Keng ma’noda "Kiyim" tushunchasi bosh K.lar, oyoq K.lar (poyabzal), qo‘lqop va b.ni ham o‘z ichiga oladi.

Kiyim turiga ko‘ra — ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal); vazifasiga ko‘ra— kundalik, uyda, dam olish paytida, bayram va to‘ymarosimlarida kiyiladigan (kishilik) kiyimlar, ish kiyim (jomakor), sport kiyim, rasmiy kiyim (forma)lar, maxsus kiyimlarga bo‘linadi; ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi.

Tukli gazlamalardan kiyim tikishda ham ayrim qonuniyatlarga e’tiborni qaratish lozim. Tukli matolardan kiyim tikish oddiy matolardan kiyim tikishdan tubdan farq qiladi. Tukli matolar bilan ishslashda e’tiborliroq bo‘lish lozim. Ayrim tukli matolar dazmollash jarayonida tuki bosilib o‘sha joy yaltirab qoladi va kiyim sifati buziladi. Bunday matolardan kiyim tikishda, ayniqsa, dazmollash jarayonida maydamaya temir tishli tasmalardan foydalanish lozim. Kiyim pastki tomoniga tishli tasma qo‘yiladi va dazmullanadiigan qirqim ehtiyyotlik bilan amalga oshiriladi. Tukli matoni tuklari tishli tasma orasiga kirib, qayrilmaydi, dazmollash jarayoni tugaganda gazlamani tuklari avvalgi holatini saqlaydi. Shunday hollarda ham matoni tuki yaltirab qolsa, qirqim cho‘zib tikiladi va qattiq qoqib qirqim dazmullanmasligi kerak bo‘ladi.

Tukli gazlamalardan kiyim tikishda tikiladigan qirqim chamlab ilgaklar yordamida har joydan ildirib qo‘yiladi, undan so‘ng mashina chok yuritiladi. Tukli gazlamani ilgak ildirmasdan tikilsa gazlama tuklari surilib qirqim tomonlari uzunkalta bo‘lib qolishi mumkin. Oldinlari bunday gazlamalarni avval qolda ko‘klab keyin tikib chiqilardi. Hozir esa tayyor bir tomoni tomtoqlangan ilgaklarni bozorlarda ko‘plab uchratish mumkin.

Tukli gazlamalar ko‘pincha sitiluvchan bo‘ladi bunday gazlamalardan kiyim tikishda qirqimlari yormalanishi lozim. Tukli gazlamalarni bichish jarayoni ham ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Tukli gazlamalardan kiyim bichishda, tuksiz gazlamaga nisbatan ancha koproq gazlama sarflanadi. Chunki andozlar gazlamaga faqat bir tomonlama joylashtiriladi.



1-rasm. Ayollar zamонави ко‘ylagi

Ayollar milliy ko‘ylaklari uchun bezak elementlarini tanlash. Bezak elementlari juda xilma-xil bolib ularni tanlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- gazlama xususiyatlariga;
- gazlama rangi va gullariga;
- gazlama narxiga va gazlama bezaklariga;
- kiyim turiga;
- kiyim kiyilish joyi va kiyim egasini yoshi, tashqi korinishiga;
- kiyim fasoniga.

Agar milliy ko‘ylak kundalik ishlarga mo‘ljallangan bo‘lsa kiyim bezagi unchalik sezilmaydigan, ko‘zga tashlanmaydigan bolishi shart. Masalan, tasmalar, torlar, jiyaklar va hakozo.

Agar kiyim kechalik kiyim bo‘lsa va gazlama qimmat narxli bo‘lsa unda gazlamaga xos bezaklar tanlanadi. Gazlama rangi, gazlama gullarini rangi va shakli, gazlama bezaklari (toshlari, ko‘zchalari, temsalari) turiga qarab bezak gazlama tanlash lozim. Ayrim hollarda gazlamani o‘zi bezaklarga boy bo‘lsa gazlama bezaklarini qirqim joylardagi bezaklari ehtiyyotlik bilan so‘kilib uni kerakli joylarga ornatish mumkin. Ayrim boy bezakli gazlamlarga ortiqcha bezak berilsa kiyim bachkanalashib ketadi. Bunday hollarda bu kiyim kechaklarda kiyim bezak elementlari qo‘llanilmaydi.



Date: 7thMay-2025

2-rasm.Ayollar milliy ko‘ylagi

Milliy kiyimlarga toshli bezaklar tanlashda toshni rangi ham gazlama rangi yoki gazlama gullari ko‘p takrorlanadigan rangiga mos ravishda tanlanadi. Aks holda kiyimga bezak ko‘rk berish o‘rniga uni sifatini buzadi.

Demak, kiyimni qanchalik sifatlari tikkan bilan uni bezaklarini, kiyim elementlarini to‘g‘ri tanlanmasa, tanlangan elementlardan to‘g‘ri foydalanilmasa kiyim sifatlari chiqmaydi.

Shuning uchun, biz yuqorida bergen tavsiyalarga amal qilinsa kiyim sifatiga kafolat berish mumkin bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, kiyimning obrazli ifodaviyligiga kompozitsiya san'ati vositasida, ya'ni kiyimni tadshishl etuvchi hajmlar, ranglar, chiziqlar, detallar va bezak elementlarini yangi va uzviy bir butun qilib birlashtirish vositasida erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Komilova X.X., Hamroyeva N.K. tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Toshkent.2003.
2. Xasanboyeva G.K., Karimova O.I. Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasinitayyorlash., Toshkent. “Oqituvchi. 1990.
3. Toshpolatov S.Sh., Komilova X.X., va boshq. Tikuv buyumlarini loyihalash.,Toshkent. “Voris - nashriyot”. 2007.
4. Jabborova M. “Tikuvchilik texnologiyasi” T.: “O‘qituvchi”, 1994
5. Ziyonet.uz